

1-TOM, 12-SON
NORASMIY XUFYONA IQTISODIYOT

Sharifjanova Mohinur Shokirjon qizi

O'zbekiston Milliy universiteti Jizzax filiali talabasi

Annotatsiya. Xufyona iqtisodiyot rivoj topishining yangi bosqichi XX asrning o'rtalaridan boshlandi. U xo'jalikning global transformatsiyasi, o'zgarishi bilan bog'liqdir. Rivojlanayotgan mamlakatlarda yashirin iqtisodiy faoliyatning kengayib borishi ushbu mamlakatlarning zamonaviy industrial mamlakatlarga va jahon bozoriga qo'shilib borishi bilan bog'liqdir.

Kalit so'zlar: xufyona iqtisodiyot, norasmiy iqtisodiyot, kriminal iqtisodiyot, fiskal soliq, moliyaviy operatsiyalar, oq yoqalilar, yashirin iqtisodiyot, iqtisodiyot sektorining o'sishi.

Annotation: A new stage of the development of the secret economy began in the middle of the 20th century. It is related to the global transformation and change of the economy. The expansion of underground economic activity in developing countries is related to the integration of these countries into modern industrial countries and the world market.

Key words: secret economy, informal economy, criminal economy, fiscal tax, financial operations, secret economy, true economic sector.

Аннотация: Новый этап развития тайной экономики начался в середине XX века. Это связано с глобальной трансформацией и изменением экономики. Расширение теневой экономической деятельности в развивающихся странах связано с интеграцией этих стран в современные индустриальные страны и мировой рынок.

ключевые слова: тайная экономика, неформальная экономика, криминальная экономика, фискальный налог, финансовые операции, служащие, скрытая экономика, рост экономического сектора.

Xufyona iqtisodiyotning rivojlanishi miqyoslari har bir mamlakatning rivojlanish darajasi, undagi ijtimoiy iqtisodiy holatiga va iqtisodiyotni davlat tomonidan tartibga solish va boshqarish xususiyatlarini nazariy jihatdan asoslab berish hisoblanadi. Maqsadga muvofiq quyidagilar ishning vazifalari etib belgilab olindi:

- xufyona (yashirin) iqtisodiyotni tarixining elementini va xufyona iqtisodiyot ijtimoiy taraqqiyotni jadallashtiruvchi omil sifatida o'rganish



1-TOM, 12-SON

- xufyona iqtisodiyotni o'lchash va uning miqyoslarini tahlil qilish.

Norasmiy, kuzatilmagan iqtisodiyot sektori qonunchilikda man qilinmagan faoliyatlar doirasida noformal ish bilan bandlik, hech qanday huquqiy hujjatlarsiz faoliyat yuritadigan xo'jalik sub'ektlaridir. Ularga huquqiy shaxs maqomiga ega bo'lmagan, noformal tadbirkorlik, biznes bilan shug'ullanuvchi ishlab chiqaruvchilar kiradi. Ushbu faoliyat natijasida olingan daromadlar soliqqa tortilmaydi. Shu bilan birga, ular ijtimoiy to'lovlar to'lamagani uchun ham ijtimoiy iste'mol fondlarini tashkil etishda ishtirok etmaydi. Turli qonunchilik me'yorlariga amal qilinmaslik holatlarining tez-tez uchrab turishi xufyona (extralegal) iqtisodiyot miqdorining indikatori bo'lib xizmat qiladi. Biroq, uning miqdoriy o'lchovi vazifasini hal etishga kirishishdan oldin xufyona iqtisodiyotning turli unsurlarini ta'riflash lozim. Umuman olganda xufyona iqtisodiyot – unda iqtisodiy faoliyat qonun doirasidan tashqarida amalga oshiriladigan, ya'ni bitimlar qonundan, xo'jalik turmushining huquqiy me'yorlari va rasmana qoidalaridan foydalanilmagan holda amalga oshiriladigan soha. Xufyona iqtisodiyot (uni norasmiy, kuzatilmagan, yashirin iqtisodiyot deb ham atashadi) insoniyat jamiyatida davlat boshqaruvi shakllanishining dastlabki davrlaridan boshlab mavjud bo'lib, hozirgi vaqtga kelib dunyoning barcha mamlakatlari uchun dolzarb muammoga aylangan. Xufyona iqtisodiyotning rivojlanishi miqyoslari har bir mamlakatning rivojlanish darajasi, undagi ijtimoiy-iqtisodiy holatiga va iqtisodiyotni davlat tomonidan tartibga solish va boshqarish xususiyatlariga bog'liqdir. Shuning uchun har bir mamlakat iqtisodiyotida xufyona iqtisodiyotning o'rnini va roli ham turlichadir. Tadqiqotlar va kuzatishlar shuni ko'rsatmoqdaki, xufyona iqtisodiyotning miqyoslari rivojlangan mamlakatlarda birmunchakamroq, rivojlanayotgan, shuningdek, bozor iqtisodiyotiga o'tishmaqsadida chuqur islohotlarni amalga oshirayotgan sobiq sotsialistik mamlakatlarda kengdir. Shu boisdan xufyona iqtisodiyotning mohiyati, vujudga kelish va rivojlanish sabablarini, ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotga ta'sirini, uni ko'lamlarini keskin kamaytirish, unga qarshi kurash masalalarini o'rganish, tadqiq qilish barcha davlatlar uchun dolzarb ahamiyatga ega. Iqtisodiy adabiyotlarda bu masalalar xx asrning 70-yillaridan boshlab ilmiy jihatdan tadqiq etilmoqda. Iqtisodiy fanda iqtisodiyotning qaysi sektorga, ya'ni norasmiy, kriminal, fiktiv, xufyona yoki ochiq, rasmiy iqtisodiyotga tegishli ekanligini aniqlashda quyidagi mezonlar asos qilib olinadi:

- davlatning fiskal (soliq) manfaatlari;
- YaIMning real hajmi;
- huquqiy parametrlar;



1-TOM, 12-SON

– ho‘jalik sub’ektlari o‘zaro harakati tavsifi.

Xufyona iqtisodiyot uchta unsurdan tarkib topadi: norasmiy, sohta va kriminal iqtisodiyot. Norasmiy iqtisodiyot – iqtisodiy faoliyatning oshkora turlari, unda xarajatlarni pasaytirish maqsadida tovarlar va xizmatlarning qayd etilmagan tarzda ishlab chiqarilishi o‘rin tutadi (yana bir bor ta’kidlash lozimki, davlatdan yashiriladigan barcha faoliyat turlari huquqiy me‘yorlar bilan tartibga solinishi mumkin emas va mulkchilik huquqlarini himoyalashning muqobil mexanizmlari qollanilishini talab qiladi). Sohta iqtisodiyot - qoshib yozishlar, chayqovchilik bitimlari, poraxorlik va pulni olish hamda berish bilan bogliq har xil tovlamachilik harakatlari iqtisodiyoti. Kriminal iqtisodiyot - qonunning (birinchi navbatda – Jinoiy va Fuqarolik kodekslarining) togridan-togri buzilishi va mulkchilikning qonuniy huquqlariga tajovuz qilish bilan bog‘liq iqtisodiy faoliyat. 1991 yilda Jenevada Yevropa statistiklarining yashirin va norasmiy iqtisodiyotga bag‘ishlangan konferensiyasi bo‘lib o‘tgan. Uning materiallari asosida rivojlangan bozor iqtisodiyoti mamlakatlarida xufyona iqtisodiyot statistikasi bo‘yicha maxsus

ko‘rsatmalari nashr etilgan. Iqtisodiy adabiyotlarda xufyona iqtisodiyotga turli ta’riflar berilgan:

1. Xufyona iqtisodiyot qonun asosida man qilingan faoliyat turlari deb ta’riflanadi.
2. Xufyona iqtisodiyot iqtisodiy faoliyatning kuzatilmagan va yashirin faoliyat turi.
3. Xufyona iqtisodiyot rasmiy statistikada u yoki bu sabablarga ko‘ra hisobga olinmagan har qanday iqtisodiy faoliyat bo‘lib, unda ishlab chiqarilgan mahsulot va xizmatlar yalpi ichki mahsulot tarkibiga kiritilmaydi hamda soliqqa tortishdan chetda qoladi.

Xufyona iqtisodiyotining belgilari. Mamlakat yashirin iqtisodiyotining ko‘lamini aks ettiruvchi asosiy ko‘rsatkichlar quyidagilar:

- Haqiqiy iste‘mol darajasi va rasmiy daromad darajasi o‘rtasidagi tafovut;
- Mamlakatlarning markaziy banklarining uslubiy hisob-kitoblariga nisbatan pulga talabning yuqori baholanishi;
- Elektr energiyasi iste‘moli, ishlab chiqarish faoliyatida, xizmatlar sohasida ishlatiladigan boshqa zarur resurslar hajmidagi tafovut;
- Aholini tanlab olingan kuzatuvlar va sotsiologik tadqiqotlar orqali belgilangan mehnat bandligining statistik ko‘rsatkichlari va ularning o‘lchamlari o‘rtasidagi tafovut.



1-TOM, 12-SON

Ko'rsatkichlarning sezilarli darajada og'ishi tadbirkorlar o'rtasida tuzilgan bitimlarning ahvolidan yashirishning katta qismini, real daromad darajasining yetarlicha baholanmaganligidan dalolat beradi.

Xufyona faoliyatning turlarini farqlashning uch mezonidan foydalaniladi: ularni “oq” (“birinchi”, rasmiy) iqtisodiyot bilan bog‘liqligi, hamda iqtisodiy faoliyatning sub’ektlari va ob’ektlari. Shu nuqtai nazardan yashirin iqtisodiyotni uch sektor (soha)ga ajratish mumkin.

- “ikkinchi” (“oq yoqalilar”);
- “kul rang” (“norasmiy”);
- “qora” (“maxfiy”) yashirin iqtisodiyot.

Kulrang xufyona iqtisodiyot - bu xufyona iqtisodiyotning eng keng sektori hisoblanadi. Shu bilan birga, uni o‘rganish qora yashirin iqtisodiyotni tahlil qilishdan ko‘ra murakkabroqdir: uyushgan jinoyatchilik iqtisodiyoti “normal”, rasmiy iqtisodiyotdan aniq ajralib tursa, norasmiy iqtisodiy faoliyat jamiyatning barcha jabhalariga o‘rnashib oladi, natijada norasmiy sektorni aniqlab olish juda

murakkab jarayonga aylanadi. Iqtisodchilar norasmiy iqtisodiyotni chorak asrdan beri o‘rganishmoqda, lekin ular ushbu fenomenning mohiyatini anglab olishdi deb aytib bo‘lmaydi. Uning kelib chiqish sabablari, jamiyatning iqtisodiy hayotidagi o‘rni, u borasidagi davlat siyosatining optimal yo‘nalishlarini ishlab chiqish to‘g‘risida fikr yuritishdan oldin, hatto, uning aniq ta‘rifi bo‘yicha bahslar davom

etmoqda. Norasmiy iqtisodiyotni tadqiq etish tarixini shartli ravishda ikki bosqichga ajratib o‘rganish mumkin:

I bosqich (1970-1980 y.): empirik tadqiqotlar, birlamchi axborotni to‘plash.

II bosqich (1980-1990 y.): chuqur iqtisodiy-nazariy tahlil, to‘plangan axborotni anglab yetish.

Xufyona iqtisodiy munosabatlar odamlarni rasmiy hujjatlarga norasmiy yondashuvga, inson kapitalini rivojlantirishda malakani oshirishga emas, balki “kerakli” odamlar bilan munosabatlar o‘rnatishga undadi. Iqtisodiy tizim taraqqiyotida yashirin iqtisodiyot funksiyalarining ikkiyoqlamaligi universal qonuniyatni yuzaga keltiradi: yashirin iqtisodiy munosabatlar institutsional innovatsiyalarning yo‘nalishlarini belgilaydi, ammo ommaviy ravishda joriy etish jarayonida ularni “orqaga tortish”ni boshlaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar:



1-TOM, 12-SON

1. Akramovich N. A. The priority of using innovative technologies in the agricultural education system //Journal of Academic Research and Trends in Educational Sciences. – 2022. – T. 1. – №. 10. – C. 185-191.
2. Akramovich N. A. HISTORY, SUBJECT AND OBJECT OF FORMATION OF" MACROECONOMICS" //Galaxy International Interdisciplinary Research Journal. – 2022. – T. 10. – №. 1. – C. 209-210.
3. Nizametdinov A. A. OLIY TA'LIM TIZIMIDA AGRAR SOHANING USTUVORLIGI UNDA INNOVATSIYALARNING QULLANISHI //INTERNATIONAL CONFERENCES. – 2022. – T. 1. – №. 6. – C. 96-98.
4. Baxrom X., Alijon N., Aziz Z. THE ROLE OF THE PRIVATE SECTOR IN THE DEVELOPMENT OF TOURISM //Journal of Academic Research and Trends in Educational Sciences. – 2022. – T. 1. – №. 12. – C. 130-136. 1005
5. Xolmuradovich X. B. et al. BUSINESS ETHICS AND CULTURE, RULES FOR ITS WORK //Journal of Academic Research and Trends in Educational Sciences. – 2022. – T. 1. – №. 12. – C. 184-191.
6. Akramovich N. A., Azamatovna U. Sh. TA'LIM TIZIMINI TAKOMILLASHTIRISH: DOLZARB TENDENTSIYALAR VA STRATEGIK YONALISHLAR //INTERDISCIPLINE INNOVATION AND SCIENTIFIC RESEARCH CONFERENCE. – 2023. – T. 1. – №. 9. – C. 36-40.
7. Худояров Р., Низаметдинов А. МАЛЫЙ И СРЕДНИЙ БИЗНЕС В УСЛОВИЯХ ГЛОБАЛИЗАЦИИ МИРОВОЙ ЭКОНОМИКИ //Центральноазиатский журнал образования и инноваций. – 2023. – Т. 2. – №. 6 Part 2. – С. 188-193.
8. Raipovna V. S., Akramovich N. A., Durdon A. CONTENT AND FUNCTIONING OF THE MARKET ECONOMY //Journal of Academic Research and Trends in Educational Sciences. – 2022. – T. 1. – №. 12. – C. 105-110.
9. Raipovna V. S., Akramovich N. A., Sherzod Y. THE ORIGINS OF CRISES AND THEIR IMPACT ON THE ECONOMIC SYSTEM //Journal of Academic Research and Trends in Educational Sciences. – 2022. – T. 1. – №. 12. – C. 89-94.
10. Akramovich N. A. et al. IMPACT OF HIDDEN ECONOMY ON SOCIETY IN UZBEKISTAN, WAYS TO REDUCE IT //Journal of Academic Research and Trends in Educational Sciences. – 2022. – T. 1. – №. 12. – C. 142-147.



1-TOM, 12-SON

11. Raipovna V. S., Akramovich N. A., Shonazarovich B. S. MONOPOLY ORGANIZATIONS, THEIR BENEFIT AND HARM TO SOCIETY //Journal of Academic Research and Trends in Educational Sciences. – 2022. – T. 1. – №.
12. – C. 111-114. 12. Sojida D., Bahrom H., Ali N. THE ROLE OF THE ECONOMY IN SOCIETY //PEDAGOGICAL SCIENCES AND TEACHING METHODS. – 2022. – T. 2. – №. 18. – C. 309-315.
13. Raipovna V. S., Akramovich N. A., Dildora F. DEVELOPMENT OF INNOVATIVE POLICY IN THE SPHERE OF EMPLOYMENT //Journal of Academic Research and Trends in Educational Sciences. – 2022. – T. 1. – №. 12. – C. 201-209.
14. Alijon N., Sirojiddin S., Azizbek A. FRANCHISE SYSTEM IN BUSINESS AND ENTREPRENEURSHIP //Journal of Academic Research and Trends in Educational Sciences. – 2022. – T. 1. – №. 12. – C. 250-257.
15. Susanna V., Ali N., Asliddin T. INNOVATIVE AND DEVELOPMENTAL ECONOMY OF UZBEKISTAN //Journal of Academic Research and Trends in Educational Sciences. – 2022. – T. 1. – №. 12. – C. 304-310.
16. Xolmuradovich X. B. et al. IMPORTANCE OF BANKING SYSTEM IN UZBEKISTAN //Journal of Academic Research and Trends in Educational Sciences. – 2022. – T. 1. – №. 12. – C. 218-224.
17. Raipovna V. S., Akramovich N. A., Matlab I. SEMANTIC MODULES IN THE LEXICAL SYSTEM OF THE LANGUAGE //Journal of Academic Research and Trends in Educational Sciences. – 2022. – T. 1. – №. 12. – C. 230-237.
18. Xolmuradovich X. B. et al. THE DEVELOPMENT OF THE SPORTS SYSTEM IN UZBEKISTAN, THE GUARANTEE OF THE HEALTHY AND WELL-ROUNDED YOUTH //Journal of Academic Research and Trends in Educational Sciences. – 2022. – T. 1. – №. 12. – C. 266-269. 1006
19. Raipovna V. S., Akramovich N. A., Sevinch K. PRODUCTION CAPACITY OF INDUSTRIAL ENTERPRISES AND WAYS TO INCREASE IT //Journal of Academic Research and Trends in Educational Sciences. – 2022. – T. 1. – №. 12. – C. 238-241.
20. Худояров Р., Низаметдинов А. МАЛЫЙ И СРЕДНИЙ БИЗНЕС В УСЛОВИЯХ ГЛОБАЛИЗАЦИИ МИРОВОЙ ЭКОНОМИКИ //Центральноазиатский журнал образования и инноваций. – 2023. – Т. 2. – №. 6 Part 2. – С. 188-193.



1-TOM, 12-SON

21. Норбеков Х. Методики анализа и оценка взаимный преимуществ предприятия //Scienceweb academic papers collection. – 2022.
22. Norbekov X. Формирование конкурентных преимуществ АО «Тандер» //Scienceweb academic papers collection. – 2022.
23. G'aybullayev S. The place of the digital economy today //Journal of Academic Research and Trends in Educational Sciences. – 2022. – Т. 1. – №. 11. – С. 116-126.
24. G'Aybullayev Sarvar O. et al. O 'zbekistonda iste'mol savatchasi hozirgi holatini va uni shakillantirish yo 'nalishlari //Talqin va tadqiqotlar ilmiy-uslubiy jurnali. – 2022. – Т. 1. – №. 4. – С. 119-125.
25. Uchkun S., Dilshod N. PROCESS OF IDENTIFYING THE SIGNIFICANT ACCOUNTS IN THE REVENUE CYCLE //Journal of marketing, business and management. – 2022. – Т. 1. – №. 1. – С. 32-36.
26. Нажмиддинов Д., Абдурахимов М. Yashirin iqtisodiyotning jamiyatga ta'siri //Современные тенденции инновационного развития науки и образования в глобальном мире. – 2022. – Т. 1. – №. 1. – С. 193-196.
27. Alijon N., Sirojiddin S., Azizbek A. FRANCHISE SYSTEM IN BUSINESS AND ENTREPRENEURSHIP //Journal of Academic Research and Trends in Educational Sciences. – 2022. – Т. 1. – №. 12. – С. 250-257

